



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:16-11-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 73845

Obyekt nomi «Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani "Shaxrixonchek" MFY Qo'g'ayo'lmas OShP hududida "Tez yordam binosi" qurish»

Buyurtmachi - Uchqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi

Bosh loyihachi - "ZAMONAVIY LOYIHA XIZMATI" MCHJ

Litsenziya AL-000316 31.10.2019 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Budget

Bosh pudratchi - Tanlov asosida

Qurilish turi Yangi qurilish

Murojaat raqami: № 66276

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Xalq deputatlari Uchqo'rg'on tumani Kengashining 28.09.2021 yildagi VI-50-107-6-87-K/22-sonli qarori.
- 1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va Namangan viloyati Qurilish boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.
- 1.3. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 25.10.2022 yildagi 1714-1714234-53037-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.
- 1.4. "GEO VALLEY GOLD" MCHJ tomonidan 2022 yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.
- 1.5. Ob'ekt loyahasining energiya samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha xulosa.
- 1.6. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 28.10.2022 yildagi 743282-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. "Ishchi loyiha"ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Tez yordam binosi. Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, suv va oqavasuv ta'minoti, elektr yoritish, yong'in signalizatsiya, videokuzatuv va kuchsiz tok qismlari.
- Bosh reja va tashqi muhandislik tarmoqlari.

- Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Loyihalananayotgan "Tez yordam binosi" Uchqo'rg'on tumani "Shaxrixonchek" MFY joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshlilik bo'yicha - 8 ball. Tashqi havo harorati - 14°s. Me'yoriy qor yuklamasi - 0,50 kPa va shamol yuklamasi - 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida suglinok (qatlam qalinligi 2,1 metrgacha), 2-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 5,4 metrgacha) asos bo'lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo'yicha toifasi - II. Cho'kuvchanligi bo'yicha 1-guruh tuproq turiga to'g'ri keladi. Yer osti suvlari yer satxidan 8 metrda aniqlangan. Yerni tuzilish reliefi - tekis.

3.2. Bosh reja.

Qo'g'ayo'lmas OShPning mavjud 2000 m² hududida joylashgan: mavjud bino va inshootlar hamda loyihalananayotgan yordamchi "Tez yordam binosi". Yer maydonining chegaralari: shimoldan - mahalliy ko'cha bilan, janub va sharqdan - aholi uylari bilan, g'arbdan - ko'cha himoya mintaqasi bilan. Hudud obodonlashtirilgan va ko'kalamzorlashtirilgan.

3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Tez yordam binosi.

Bino - 1 qavatli, yerto'lasiz, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-4" o'qlar bo'yicha 6,3mx18,0m o'lchamda, xonalar balandligi - 3,0m.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor - yaxlit tasmasimon va alohida quyma temir-betondan, beton markasi V7,5, V15.

Devorlar - pishiq g'ishtdan, 380mm qalinlikda.

Pardadevor - pishiq g'ishtdan, 120mm qalinlikda.

O'zaklar va sarbastalar - yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Tomyopma - UTR 46.1-95 v.7 seriyali temir-beton plitalar.

Tom - yog'och stropila va reykali to'qima asosida profnastil qoplama.

Derazalar - plastik profil.

Eshiklar - MDF va alyumin profil.

Pollar - relin, keramik, keramogranit.

Ichki muhandislik tarmoqlari.

Isitish va shamollatish.

Issiqlik ta'minoti manbai mavjud isitish qozoni hisoblanadi. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi T1=95°, T2=70°s parametrlarga ega bo'lgan suv bo'lib, isitish tizimi ikki quvurli gorizontall uzatgichli tizim etib loyihalangan. Tizimdan havoni chiqarib tashlash ta'minlangan bo'lib, bimetall turdagi radiatorlar isitish asboblari sifatida qabul qilingan. Isitish suvo'tkazgichlari polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Shamollatish tabiiy va mexanik turtki bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Binolarga havo oqimi derazalar orqali kirishi ta'minlangan.

Ichimlik va oqava suv ta'minoti.

Binoga xo'jalik-ichimlik hamda issiq suv ta'minoti tarmoqlari loyihalangan bo'lib, tarmoqlar polipropilen quvurlar nazarda tutilgan. Binoda xo'jalik-maishiy oqavasuv tizimi mo'ljallangan bo'lib, tarmoqlar plastmassa quvurlardan tashkil topgan.

Elektr qismi.

Elektr tarmog'i kuchlanishi 380/200V. Loyihada 220V kuchlanish ishchi yoritish ko'zda tutilgan. Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshiriladi. Binoni yoritish qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq qabul qilingan. Guruhli yoritish tarmog'i va quvvatli tarmoq VVGng-600, magistral tarmoq AVVG-660 kabelda loyihalangan. Loyihada ShRNm turdagi yoritish va taqsimlash shitlarni o'rnatilishi hisobga olingan.

Yong'in signalizatsiyasi.

Loyihada yong'inga qarshi signalizatsiya va yong'indan xabardor qilish tizimlari bilan jihozlash ko'zda tutilgan. Yong'inga qarshi signalizatsiya tizimida qabul qiluvchi-nazorat asbobi, tutunli va issiqlikli yong'in xabarlagichlari va IPR turdagi qo'l xabarlagichlari qabul qilingan. Yong'indan xabardor qilish tizimi uchun tovush kuchaytirgich va bino ichiga o'rnatilishi ko'zda tutilgan ovoz chiqarish qurilmalar bilan bajarilgan.

Binoning asosiy ko'rsatkichlari:

Qurilish maydoni	- 122,28 m ²
Umumiy maydoni	- 102,14 m ²
Qurilish hajmi	- 550,26 m ³

Yong'in xavfsizligi.

Loyihada binoning o'tga chidamlilik darajasi o'tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong'in guruhlariga javob berishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Yong'inni rivojlanishini oldini olish uchun yong'in signalizatsiyasi va yong'indan xabardor qilish tizimlari loyihalangan. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yo'nalishida ochiladi. Chordoq tomining yog'och konstruksiyalari olovga bardoshlilik va antiseptiklar bilan ishlov beriladi.

Energiya tejamkorlik.

Energiya tejamkorligini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Tom - 80 mm qalinlikda mineral plitadan izolyatsiya qatlami;

Romlar - PVX dan ikki qavat oynali, yon tomonlari sement-qum suvoq va moyli bo'yoq bilan ikki marta bo'yalgan;

Devorlar - devorlarni tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi mineral (bazalt) plitalar bilan izolyatsiya qatlami.

Pollar - 20 mm qalinlikda "penopleks"dan izolyatsiya qatlami.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Muhandislik ta'minoti* - Qo'g'ayo'lmas OShPning mavjud tarmoqlardan nazarda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Namangan viloyat Arxitektura va shaharsozlik kengashining 8.11.2022 yildagi 58405-sonli xulosasi.

- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 11.11.2022 yildagi 01-19/08-1024-sonli xulosasi.

- O'zbekiston nogironlar Assotsiatsiyasi Namangan viloyat hududiy bo'limining 7.11.2022 yildagi 111-sonli

xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining xulosasi – taqdim etildi.

6.1.2. Namangan viloyat Arxitektura va shaharsozlik kengashining xulosasi – taqdim etildi.

6.1.3. O'zbekiston nogironlar Assotsiatsiyasi Namangan viloyat hududiy bo'limining hulosasi – taqdim etildi.

6.1.4. Umumiy ma'lumotlar varag'i – o'zgartirildi.

6.1.5. Devorlar yoyilma chizmasi – o'zgartirildi.

Muhandislik ta'minoti.

6.1.6. Ichimlik suv ta'minotiga ulanish bo'yicha asos – taqdim etildi.

6.1.7. SO.VK-1 jihoz va uskunalar jadvalida issiq suv uchun quyosh suv isitgich quvvati hamda suv idishi hajmi – o'zgartirildi.

Isitish va shamollatish.

6.1.8. Binoning energopasporti – qayta ishlandi.

6.1.9. Tashqi issiqlik tarmog'i bosh rejasi – ishlandi.

6.1.10. Tashqi issiqlik tarmog'i bo'ylama qirqimda balandlik satxlari – o'zgartirildi.

6.1.11. Tashqi issiqlik tarmog'ida issiqlik himoya qatlami – o'zgartirildi.

6.1.12. Shamollatish chizmasida kanallar o'lchamlari – ko'rsatildi va ishchi sxemasi - berildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko'ra buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan 749589,866 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 83248,578 ming so'mga kamaytirilib, **666341,288 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	556306,104	ming so'm
Asbob-uskunalar:	23121,103	ming so'm
QQS:	86914,081	ming so'm
- Bundan tashqari		
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	50000,000	ming so'm

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliliyi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani "Shaxrixonchek"

MFY Qo'g'ayo'lmas OShP hududida "Tez yordam binosi" qurish" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich



ZAMONAVIY LOYIHA
X I Z M A T I

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ООО «ZAMONAVIY LOYIHA XIZMATI»

РАБОЧИЙ ПРОЕКТ

**Учкоргон туман Шархончек МФЙ Когайолмас
ОШП худудида "Тез ёрдам биноси" куриш**

**Локально-ресурсная ведомость
Рекомендуемая стартовая стоимость в текущих ценах**

Наманган. 2022 г

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ООО «ZAMONAVIY LOYIHA XIZMATI»

Заказ № _____



Архив № _____

РАБОЧИЙ ПРОЕКТ

Учкоргон туман Шархончек МФЙ Когайолмас ОШП худудида
"Тез ёрдам биноси" куриш

Локально-ресурсная ведомость
Рекомендуемая стартовая стоимость в текущих ценах



Ш. Ахмаджонов

Ш. Юсуфжонов

г. Наманган. 2022 г

ПОЯСНИТЕЛЬНАЯ ЗАПИСКА

РЕКОМЕНДУЕМАЯ СТАРТОВАЯ СТОИМОСТЬ В ТЕКУЩИХ ЦЕНАХ

**Учкоргон туман Шархончек МФЙ Когайолмас ОШП худудида
"Тез ёрдам биноси" куриш**

Согласно положение №1 Постановления КМ Руз от 11.06.2003 г. за №261 «О переходе на договорные текущие цены при реализации инвестиционных проектов осуществляемых за счёт централизованных капитальных вложений», договорная стоимость работ и услуг в строительстве в текущих ценах формируется по результатам тендерных торгов.

Стоимость строительства объекта рассчитывается по ресурсному методу применительно к условиям строительства для Наманганской области, согласно- объёмов.

Стоимость строительных материалов, конструкций, оборудования и инвентаря определены на основании Каталога текущих цен на материально-технические ресурсы, применяемых в строительном производстве Республики Узбекистан

Согласно расчёт стартовая стоимость строительства объекта с учёта затраты на оборудования и с НДС ом составляет (без затратами заказчика):

666 341 288 сум.

ТАВСИЯ ЭТИЛГАН БОШЛАНҒИЧ ЖОРИЙ НАРХЛАР

Учкоргон туман Шархончек МФЙ Когайолмас ОШП худудида "Тез ёрдам биноси" куриш

Т/р	ХАРАЖАТЛАР НОМИ	ЖОРИЙ НАРХЛАРДАГИ ҚИЙМАТИ	ЭСЛАТМА
1	Ускуналар харажати, мебел ва инвентар	23 121 103	Ҳисоб 1
2	Ускуналар учун транспорт харажатлари	462 422	
3	Қурилиш материаллари буюмлари ва конструкциялари харажатлари	313 531 904	Ҳисоб 2
4	Материаллар учун транспорт харажатлари	15 676 595	Ҳисоб 3
5	Симли материаллар	8 686 322	Ҳисоб 4
6	Асосий иш хақи харажатлари, ижтимоий сугурта тўловлари билан	119 142 992	Ҳисоб 5
7	Машиналар ва механизмларнинг эксплуатация харажатлари	6 556 688	Ҳисоб 6
8	Тўғридан-тўғри харажатлар жами	463 594 502	Ҳисоб 7
9	Пудратчининг бошқа харажатлари	90 400 928	Ҳисоб 8
10	Қурилиш жараёнида объектлар қурилишини сугурталаш харажатлари	1 848 253	Ҳисоб 9
11	Келгуси йил учун қурилишда нархлар ўсишининг прогноз қилинган кўрсаткичи асосида аниқланган таваккалчилик коэффициенти	0	Ҳисоб 10
12	ҚҚСни ҳисобга олмаган ҳолда қурилишнинг амалдаги нархларда умумий қиймати	579 427 207	Ҳисоб 11
13	ҚҚС 15%	86 914 081	Ҳисоб 12
14	ҚҚС билан амалдаги нархларда қурилишнинг умумий қиймати	666 341 288	
18	Буюртмачининг бошқа харажатлари	50 000 000	Ҳисоб 13
19	Қурилиш нархларининг умумий қиймати ҚҚС ва буюртмачининг харажатлари билан амалдаги нархларда	716 341 288	



Handwritten signature in blue ink.

Ш. ЮСУФЖОНОВ

У. АБДУЛХАКИМОВ

Транспорт харажатлари билан жиҳоз сотиб олиш харажатлари						Ҳисоб 1								
Ресурслар варағига кўра, ускуналарнинг нархи амалдаги нархларда														
Транспорт харажатлари мебел ва инвентаризация ускуналарининг 2% ни ташкил этади														
23 121 103	x	2%	=			462 422 сўм								
Қурилиш материаллари, маҳсулотлар ва тузилмаларни сотиб олиш харажатлари						Ҳисоб 2								
Ресурслар варағига кўра, материаллар нархи амалдаги нархларда														
						313 531 904 сўм								
Транспорт харжатлари						Ҳисоб 3								
313 531 904	x	5%	=			15 676 595 сўм								
Транспорт харажатлари билан кабел ва электр узатиш материаллари-1,5%						Ҳисоб 4								
8 557 953	x	1,5%	=			128 369								
Иш ҳақи харажатлари:						Ҳисоб 5								
2021 йил 4-чораги каталогига асосан Наманган вилоятида қурилиш ишчиларининг ижтимоий суғуртасини ҳисобга олмаган ҳолда ўртача иш ҳақи 17504,96 сўм/соат														
						сўм								
						сўм/соат								
Ресурсларни баҳолаш харажатлари						5 086 6500 одам/соат								
Умумий иш ҳақи амалдаги нархларда Яратиш =														
5 086,6500	x	20913,11	=			106 377 672 сўм								
Ижтимоий суғурта бадаллари – 12%														
106 377 672	x	12%	=			12 765 321 сўм								
Машиналар ва механизмларнинг нархи						Ҳисоб 6								
						6 556 688 сўм								
Тўлиқ харажатлар						Ҳисоб 7								
313 531 904	+	15 676 595	+	8 557 953	+	128 369	+	106 377 672	+	12 765 321	+	6556688,15	=	463 594 502 сўм
Пудратчининг бошқа харажатлари						Ҳисоб 8								
Буюртмачи, Наманган вилояти хокимлиги ЯБИК нинг 22.02.2018 йилдаги №01-08/123 хатига асосан, буюртмачининг бошқа харжатларини -19,5% қабул қилинди.														
463 594 502	x	19,50%	=			90 400 928 сўм								
Объект суғуртаси						Ҳисоб 9								
Қурилиш харажатларини суғурталаш Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Давлат маблағлари ва кредитлари, давлат кафолати ҳисобидан объектларни қуриш жараёнида қурилиш харажатларини мажбурий суғурта қилиш" тўғрисидаги қарорига мувофиқ қабул қилинди.														
Қурилиш харажатларини мажбурий суғурталаш бўйича конвертация қилинган тарифлар суғурта суммасининг 0,4% ни ташкил этади.														
(Объектнинг умумий нархининг 80%)														
577 578 955	x	80%	x	0,4%	=	1 848 253 сўм								
Тавақалличилик даражаси						Ҳисоб 10								
Хавфлар коэффициентини Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "___"___200___ йилдаги қарори №___ сонли иловасига мувофиқ қабул қилинган. Хавф коэффициентини шартли равишда 3% деб қабул қилинади ва ҚР аниқланади.														
(объект суғуртаси ва буюртмачи харажатлари бундан мустасно)														
577 578 955	x	0%	=			0 сўм								
Амалдаги нархларда ҚҚС ни ҳисобга олмаган ҳолда жами бошланғич нарх						Ҳисоб 11								
577 578 955	+	1 848 253	+	0	=	579 427 207 сўм								
ҚҚС						Ҳисоб 12								
579 427 207	x	15%	=			86 914 081 сўм								

Объект учун буюртмачининг бошқа харажатлари

№	Харажатлар номи	Ўлчов бирлиги	Сумма
1	АРТ	сўм	0
2	Топографик тадқиқот	сўм	0
3	Геология	сўм	0
4	Техник кўрик	сўм	0
5	Лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқариш	сўм	0
6	Лойиҳа-смета ҳужжатларини экспертизадан ўтказиш	сўм	0
7	Танлов	сўм	0
8	Муаллифлик назорати	сўм	0
9	Лойиҳа ЗВОС	сўм	0
10	Атроф-муҳит экспертизаси	сўм	0
11	ДАҚН	сўм	0
12	Буюртчи таркиби	сўм	0
	ЖАМИ	сўм	0



(Handwritten signature of Sh. Yusufjonov)

Ш. ЮСУФЖОНОВ

(Handwritten signature of U. Abdulkhakhimov)

У. АБДУЛХАКИМОВ